

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI SHAXSINING SHAKLLANISHIDA DO'STLIK VA O'RTOQLIK MUNOSABATLARINING O'RNI

Avazbekova Shohsanam Nurmamat qizi

Namangan davlat universiteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6592141>

ANNOTATSIYA. Maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar shaxsining shakllanishida do'stlik va o'rtoqlik munosabatlarining ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

TAYANCH TUSHUNCHALAR: do'stlik; o'rtoqlik; axloqiy sifat; ijtimoiy munosabat; do'stlik va o'rtoqlik odoblari.

O'zbekiston buyuk kelajagini yaratish, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari darajasiga erishishida evolyutsion rivojlanish yo'lini tanlangan. O'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifat va fazilatlarni o'quvchi-yoshlarda tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridandir.

Maktab ta'limiga qadam qo'ygan 1-sinf o'quvchisi yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shiladi, tengdoshlari bilan o'quv faoliyatida birgalikda ishtirok etadi. Garchi, boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyati asosiy o'rinda tursada, tarbiyaviy vazifalar ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Chunki, tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzlucksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni etishtirib beradi.

Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalashga jiddiy muosabat bilan yondashish ham fikrimizning yorqin dalilidir.

Qanday kishilarni do'st, o'rtoq deb ataymiz?

Bir tashkilotda, korxona yoki idoralarda birga ishlaydigan, maktab, kollej yoki institutlarda o'qiydigan va yagona maqsad uchun kurashatgan jamiyat a'zolarini o'rtoq deymiz. Umuman O'zbekistonda yashayotgan ko'p millatli fuqarolarning barchasi bir-biriga do'qt va o'rtoqdirlar. Keng ma'nodagi bu tushuncha barcha kishilarning porloq kelajak uchun – huquqiy, demokratik jamiyat qurish uchun bir qadan bosh chiqarib, hamkorlikda ishlayotganida yaqqol namon bo'ladi. Buning yorqin dalili qaynoq hayotimizning o'zidir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalash – kichik maktab yoshidagi bolalarni axloqiy tarbiyalashning asosiy vazifasidir. U

atrofdagi o'rtoqlariga, faqat o'zing uchun emas, boshqalar uchun ham muhim bo'lgan faoliyatga nisbatan xudbinlik, beparvo munosabatning namoyon bo'lishiga ziddir.

O'quvchilarda uyushqoqliq, mas'uliyat asoslari, burch, adolat hissi, mehribonlik, insonparvarlik kurtaklari tarbiyalangan bo'lsa, do'stlik munosabatlari birinchi sinfdanoq ularning xush ko'rishlik, ijobiy, do'stona munosabatlarini rivojlantirishga asoslanadi, bu o'quvchilarning xayrixohlik munosabatlari uchun nihoyatda muhimdir. Birgalikdagi rang-barang o'quv faoliyati har bir bolada o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish va uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ta'lim-tarbiya jaranida o'zaro do'stlik munosabatlarining yu'aga kelishida sifat jihatidan siljish kuzatiladi. Bu o'qituvchining o'quvchilarga yuqori talablar qo'yishiga: dars paytida, topshiriqlarni bajarishda o'rtoqlari bilan aloqa bog'lash, tengdoshlari bilan birgalikda umumiylar faoliyat uchun sharoit yaratish, boshqalarning qiziqishlari, istaklari bilan hisoblashish, yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Pedagog o'quvchilarni yakka tartibdagi va birgalikdagi faoliyatga jalb etar ekan, ularni yaxshi ishlarga mashq qildiradi, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi, atrofdagilarga (o'qituvchiga, o'rtoqlariga) quloq solish, ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish istagini uyg'otadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda o'rtoqlari bilan salomlashish, minnatdorchilik bildirish, ulardan xushmuomalalik bilan iltimos qilish, boshqa bolalar yonida ularga halaqit bermay o'qish, yoish, topshiriqlarni bajarish, o'rtoqlarini kerakli vaziyatlarda tinchgina kutish ko'nikmalarini tarbiyalaydi.

Darsdan tashqari vaqtarda o'quvchilardan bir-birlari bilan xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lish, o'rtoqlariga qo'lidan keladigan xizmatlar ko'rsatish, tengdoshlari bilan birgalikda turli o'yinlar o'ynash, yon bosish malakalarini mustahkamlaydi.

Pedagog asta-sekin o'quvchilarda o'rtoqlariga nisbatan maylni, yaxshi mehribon bo'lishiga intilishini tarbiyalashni davom ettiradi, bolaga o'zining yomon odatlaridan uyalish kerakligini uqtiradi.

2-3-sinflarga o'tgach, boshlang'ich sinf o'quvchilarida tengdoshlari bilan birgalikdagi o'quv faoliyatiga, o'yinlarga, ular bilan muloqotda bo'lishga ehtiyoj aniq ifodalangan bo'ladi. Bu ijtimoiy ehtiyoj oz'aro do'stlik munosabatlarini rivojantirishning zamini hisoblanadiki, bu ham muhim tarbiyaviy vazifadir.

O'quvchilarga nisbatan bu vazifa tengdoshlari bilan muloqotda, yaxshi natijalarga erishganda quvonch hissini rag'batlantirishdan iborat bo'ladi. Shu bilan birga o'qituvchi o'quvchilarni o'zaro munosabat qoidalarni buzilishini

(itarib yuborish, narsasini berkitish ki olib qo'yish) payqashga ham o'rgatib boradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'ziga yaqin do'slari bilan muloqotda bo'lishga intilish ayniqsa kuchli bo'ladi. O'quvchilarning rivojlanganlik darajasi, tengdoshlarining harakat va nutqini tushunish, ular bilan samimiy gaplashish, birgalikdagi o'yin, mashg'ulot haqida kelishib olish imkonini beradi.

O'rtoqlari orasida o'quvchi o'z istagini boshqa bola va butun bolalar guruhi bilan muvofiqlashtirishga o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yaxshi rahmdil o'rtoq bo'lishlari mumkin. Bularning barchasi o'qituvchi zimmasiga boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'rtoqlariga nisbatan xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'qituvchining iltimosiga ko'ra yangi kelgan, kasal bo'lgan o'rtoqlari haqida g'amxo'rlik qilish, o'zi bilgan narsani boshqalarga o'rgatish ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini yuklaydi.

O'quvchilar kattalarga taqlid qilib, o'qishda, mehnatda, tengdoshlari bilan kundalik muloqotda o'zaro e'tibor, g'amho'rlik, xushmuomalalikni namyon etadilar. Bundan ko`rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalash ga e'tibor berish har doim pedagoglar oldida turgan dolzarb vazifaardan biri sanaladi.

Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini tarbiyalash masalasiga birinchi darajali vazifa sifatida qaralmoqdaki, bu masalani boshlang'ich sinflarda tarbiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishdan boshlash zarur.

O'zbekiston mustaqillik bosqichlarini o'tayotgan shu kunlarda o'quvchilar tarbiyasi masalasi, tarbiyada xalq pedagogikasining tutgan o'rni dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini arbiyalash masalasida biz ko'proq Sharq mutafakkirlarining asarlariga tayanamiz va bizga asos vazifasini o'taydi.

Qadim-qadimdan sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim, tarbiya, o'zaro do'stlik, odob, axloq masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Kaykovusning «Qobusnomá»sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ko'plab asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» («Haqiqat sovg'alari»), imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Adab Al-Mufrad» («Adab durdonalari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim»ida, Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muxsiniy», «Ravzati shaxodat» («Shahodat bog'i») kabi asarlarida odob-axloq va o'zaro do'stlik masalalari keng yoritilgan.

Sa'diy Sheroziy shunday yozadi;

Agar do'stini har kishi ranjitar,
Uning dushmani balki po'stin shilar.
Agar sen esang do'st bilan jonu tan,
G'anim yemrilur shoxu ildiz bilan.

Bu bilan u kishilarning insoniylik belgisi uning do'stlik munosabatlari ekanligi bilan o'lchanadi, deb ta'kidlaydi va barcha insonlarni o'zaro do'st bo'lishga chaqiradi.

Xalq pedagogikasi namunalarida o'quvchilarda o'zaro do'stlik shakllantirish g'oyasi asosiy o'rinni tutadi. Eng qadimgi milliy-ma'naviy qadryatlarimiz-“Avesto”, Urxun-Enasoy yodgorliklari, Qur'oni Karim va Hadisi sharifda, Markaziy Osiyo allomalari Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida o'zaro do'stlik masalalari ilgari surilgan.

Mamlakatimizda keyingi yillarda o'quvchilarni estetik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnat, axloqiy tarbiyalash muammosiga qiziqish kuchaydi. Bu yo'nalishlarda F.Q.Axmedov, D.T.Sabirova, F.B.Valiho'jaeva, N.O.Ibodullaevaarning ilmiy-tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. Xususan, N.O.Ibodullaeva “Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda insonparvarlikni shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi ishida ham kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va kishilarga yuksak-ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga g'amho'rlik qilish haqida to'xtalib o'tgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-sun qaroriga 1-ILOVA.
2. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: "Nihol" nashriyoti, 2013, 2016.-279b.
3. Qodirova Z. O'quvchilarda tolerantlikni rivojlantirishning ba'zi masalariga doir. // J. Falsafa va huquq. - T., 2008. -№. – B.42.
4. R.A Mavlonova, N.X.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.J.Abdullaeva "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" .-T.: 2015 y.
5. Rustamaliyev, Mirjalol Hayrullo O'G'Li. "HINDISTONDA INGLIZ MUSTAMLAKACHILIK TIZIMINING YEMIRILISHI, DEMOKRATIK TAMOYILLARNING QAROR TOPISHI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.5 (2022): 321-327.